

MAKTABGACHA TA'LIMDA MILLIY QADRIYATLAR VA GLOBAL KOMPETENSIYALAR INTEGRATSIYASI**Xodjayeva Nodira Anvarovna***37-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori**Xalqaro Nordik Universiteti Pedagogika yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida milliy qadriyatlar va global kompetensiyalarni uyg'unlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy madaniyat, an'ana va ma'naviy meros asosida bolalarda ijtimoiy, kommunikativ, madaniy va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, global kompetensiyalarni rivojlantirish orqali bolalarda tanqidiy fikrlash, ochiq muloqot, tolerantlik va madaniyatlararo tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ochib beriladi. Maqolada maktabgacha ta'lim muhitida milliy va global yondashuvlar integratsiyasini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, milliy qadriyatlar, global kompetensiyalar, integratsiya, madaniy tarbiya, ijtimoiy rivojlanish

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы интеграции национальных ценностей и глобальных компетенций в системе дошкольного образования. Анализируются педагогические возможности формирования у детей социальных, коммуникативных, культурных и гражданских компетенций на основе национальных традиций и духовного наследия. Особое внимание уделяется развитию глобальных компетенций, таких как критическое мышление, толерантность, открытость к диалогу и межкультурное взаимодействие. В работе представлены научно-практические выводы по эффективной организации интеграции национального и глобального подходов в дошкольном образовательном процессе.

Ключевые слова: дошкольное образование, национальные ценности, глобальные компетенции, интеграция, культурное воспитание, социальное развитие

Abstract: This article explores the integration of national values and global competencies within the preschool education system. The study highlights pedagogical opportunities for fostering children's social, communicative, cultural, and civic competencies based on national traditions and spiritual heritage. At the same time, the importance of developing global competencies such as critical thinking, tolerance,

openness to dialogue, and intercultural understanding is emphasized. The article presents scientific and practical conclusions on the effective integration of national and global approaches in the preschool educational environment.

Keywords: *preschool education, national values, global competencies, integration, cultural education, social development*

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonlari sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, shu bilan birga, zamonaviy dunyo talablariga mos, global fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichi bolaning shaxsiyati, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvori shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Shu sababli ushbu bosqichda milliy qadriyatlar va global kompetensiyalarni uyg‘unlashtirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan madaniy merosi, urf-odatlarini, an’analarini, axloqiy me’yorlari va ma’naviy boyliklarini o‘z ichiga oladi. Ular bolaning o‘z milliy o‘zligini anglashida, vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik, mehr-oqibat va jamoaviylik kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarni singdirish bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlash bilan birga, ularning ijtimoiy moslashuvini ham ta’minlaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy jamiyat sharoitida global kompetensiyalarni rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. Global kompetensiyalar bolalarning turli madaniyatlarni tushunish va hurmat qilish, muloqotga ochiqlik, muammolarga tanqidiy yondashish, hamkorlikda faoliyat yuritish va o‘z fikrini erkin ifoda etish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyalarni maktabgacha yoshdan boshlab shakllantirish bolalarning keyingi ta’lim bosqichlarida va hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishiga zamin yaratadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida milliy qadriyatlar va global kompetensiyalar integratsiyasi pedagoglardan innovatsion yondashuvni, moslashuvchan ta’lim metodlarini va zamonaviy tarbiyaviy texnologiyalarni qo‘llashni talab etadi. Milliy o‘yinlar, xalq og‘zaki ijodi, urf-odat va bayramlar orqali tarbiya berish jarayonida global kompetensiyalarni rivojlantiruvchi o‘yinlar, muloqotli mashg‘ulotlar va jamoaviy faoliyatlarni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bolalarda milliylik va umuminsoniylikni bir butun holda anglash imkonini beradi.

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar va global kompetensiyalarni integratsiyalashning nazariy asoslari, pedagogik imkoniyatlari hamda amaliy jihatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiya va ta’lim sifatini oshirishga, bolalarni zamonaviy va milliy qadriyatlarga tayangan holda har tomonlama barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Maktabgacha ta’limda milliy qadriyatlar va global kompetensiyalar integratsiyasi bolani bir vaqtning o’zida ikki muhim yo’nalishda rivojlantirishni ko’zlaydi: bir tomondan, u o’z xalqining madaniy ildizlariga tayanib voyaga yetadi, ikkinchi tomondan esa, zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo’ladigan ko’nikma va qarashlarni bosqichma-bosqich egallaydi. Bunday integratsiya “milliylik” va “globallik”ni qarama-qarshi qo’yish emas, aksincha, ularni o’zaro boyitadigan, tarbiyaviy jarayonni mazmunan chuqurlashtiradigan yondashuv sifatida qaraladi. Chunki global kompetensiyalarni shakllantirish milliy o’zlikni yo’qotish degani emas, milliy qadriyatlarni singdirish esa dunyoga yopiq bo’lishni anglatmaydi. Maktabgacha davrda aynan shu muvozanatni topish pedagogik jihatdan nihoyatda muhim.

Milliy qadriyatlar maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy me’yorlar va ijtimoiy xulqni shakllantirishning tabiiy manbai hisoblanadi. Kattaga hurmat, kichikka izzat, oila sha’ni, mehr-oqibat, mehmondo’stlik, halollik, mehnatsevarlik, andisha, sabr-qanoat kabi tushunchalar bolaga nazariy ta’rif bilan emas, balki kundalik hayotiy vaziyatlar, o’yinlar, ertaklar, maqollar, milliy marosimlar, oilaviy tarbiya unsurlari orqali singdirilganda samarali bo’ladi. Maktabgacha ta’lim muhitida tarbiyachi bu qadriyatlarni bolaga “buyruq” sifatida emas, balki amaliy tajriba va ijobiy namuna orqali yetkazishi zarur. Masalan, guruhda navbat kutish, o’yinchoqni bo’lishish, o’rtog’iga yordam berish, salomlashish odobi, kattalarga so’z bermasdan gapirmaslik kabi oddiy amaliy holatlar milliy tarbiya mazmunini jonli namoyon etadi.

Global kompetensiyalar esa bolani kelajakda ko’p madaniyatli va tez o’zgaruvchan muhitda muvaffaqiyatli yashashga tayyorlaydi. Bu kompetensiyalarga muloqot qila olish, hamkorlik, muammoli vaziyatlarni tinch yo’l bilan hal qilish, turli fikrlarga hurmat bilan qarash, tanqidiy va ijodiy fikrlash, o’z his-tuyg’ularini boshqarish, ekologik va ijtimoiy mas’uliyat kabi yo’nalishlar kiradi. Maktabgacha yoshda bularning barchasi “kattalarcha” atamalar bilan emas, balki o’yin faoliyati, sahnalashtirish, jamoaviy topshiriqlar, o’zaro muloqotga asoslangan mashg’ulotlar orqali yengil va tabiiy ko’rinishda shakllantiriladi. Shuning uchun ham integratsiya jarayonida

tarbiyachi milliy mazmuni global ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan uyg‘unlashtira olishi kerak.

Integratsiyaning eng samarali yo‘llaridan biri — xalq og‘zaki ijodi va bolalar adabiyotidan maqsadli foydalanishdir. Ertaklar, rivoyatlar, topishmoqlar, maqollar, matallar bolalarning tasavvurini boyitadi, axloqiy xulosaga kelish ko‘nikmasini shakllantiradi, nutq madaniyatini rivojlantiradi. Masalan, ertakdagi qahramonlar xatti-harakatini muhokama qilish jarayonida bolalar “nima uchun bu ish to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri?” degan savollarga javob izlaydi. Bu esa tanqidiy fikrlashning dastlabki ko‘rinishidir. Shu bilan birga, ertaklardagi turli xarakterdagi personajlar bolalarda empatiya va muloqot ko‘nikmalarini kuchaytiradi, bu esa global kompetensiyalarning muhim tarkibi hisoblanadi.

Milliy o‘yinlar integratsiyada alohida o‘rin tutadi. “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Chillak”, “Arqon tortish”, “Topib ol”, “Qiz quvdi” kabi o‘yinlar jismoniy rivojlanish bilan birga, jamoada harakat qilish, qoidalarga rioya etish, halollik, navbat, adolatli raqobat, yutqazishni to‘g‘ri qabul qilish kabi ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantiradi. Aynan shu ko‘nikmalar bugungi kunda global kompetensiyalar tizimida “collaboration” va “social-emotional learning” sifatida e’tirof etiladi. Demak, milliy o‘yinlar orqali global ko‘nikmalarni rivojlantirish tabiiy va samarali yo‘l bo‘la oladi.

Integratsiya jarayonida til va muloqot madaniyatini rivojlantirish ham muhim yo‘nalishdir. Maktabgacha ta’limda ona tili bolada milliy o‘zlikning tayanchi sifatida shakllanadi. Ona tili orqali bola atrof-muhitni anglaydi, hissiyotini ifodalaydi, ijtimoiy munosabatga kirishadi. Shu bilan birga, global kompetensiyalar nuqtayi nazaridan bola tinglashni, savol berishni, o‘z fikrini muloyim va aniq bildirishni, bahsni janjalsiz olib borishni o‘rganishi kerak. Buni guruhdagi “davra suhbat”, hikoya tuzish, rolli o‘yinlar, dialogli mashg‘ulotlar, jamoaviy muhokamalar orqali amalga oshirish mumkin. Masalan, “Mehmon kutamiz” mavzusidagi rolli o‘yin bir vaqtning o‘zida mehmondo‘stlik (milliy qadriyat) va muloqot, odob, hamkorlik (global kompetensiya)ni shakllantiradi.

Madaniyatlararo tushunishni shakllantirish ham integratsiyaning muhim qismi sanaladi. Global kompetensiyalarning asosiy jihatlaridan biri turli madaniyat va urf-odatlarini hurmat qilishdir. Maktabgacha yoshdagi bolada bu sifatni rivojlantirish uchun turli mamlakatlar bolalarining kundalik hayoti, kiyim-kechagi, taomlari, o‘yinlari haqida sodda va ko‘rgazmali ma’lumotlar berish mumkin. Bunda asosiy maqsad “biznikidan boshqacha”ni yomon ko‘rsatish emas, aksincha, turlicha bo‘lish normal holat ekanini anglatishdir. Shu jarayonda o‘z milliy qadriyatlarimiz ham ijobiy,

mazmunli va faxr bilan taqdim etiladi. Natijada bola o‘zligini anglaydi, boshqalarni ham hurmat qiladi.

Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiya integratsiyaning amaliy maydonlaridan biri bo‘la oladi. Tabiatga mehr, daraxt ekish, suvni tejash, tozalik, jonivorlarga g‘amxo‘rlik kabi g‘oyalar milliy an‘analarda ham mavjud bo‘lib, bugungi global kun tartibida ham muhim masala hisoblanadi. Masalan, “Hasar” (jamoaviy yordam) g‘oyasi orqali guruh xonasini tozalash, bog‘ni parvarish qilish, gullarga qarash kabi kichik vazifalarni jamoa bo‘lib bajarish bolalarda ham milliy jamoaviylik, ham global mas’uliyat va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu jarayonni kuzatish, natijani baholash va his-tuyg‘ularni ifodalash orqali bolalarda refleksiya elementlari ham paydo bo‘ladi.

Integratsiyani samarali tashkil etishda ta’lim metodlarining moslashuvchanligi zarur. Faol o‘qitish metodlari, o‘yin texnologiyalari, loyiha faoliyati, STEAM elementlari, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish maktabgacha ta’limga mos shaklda qo‘llanganda, global kompetensiyalar rivojlanadi. Masalan, “Milliy uy” mavzusida konstruktorlardan uy qurish, uni bezash, “xonalar nimaga xizmat qiladi?”ni tushuntirish milliy urf-odatlar bilan birga, muammo yechish, rejalashtirish, jamoaviy ishlash kabi global ko‘nikmalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Yoki “Non qadri” mavzusida nonning tayyorlanish jarayonini bosqichma-bosqich ko‘rsatish, mehnatning qadri, isrof qilmaslik (milliy tarbiya) va sabab-oqibatni tushunish, kuzatish, xulosa chiqarish (global kompetensiya)ni uyg‘unlashtiradi.

Bunday integratsiyada tarbiyachining shaxsiy namunaliligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tarbiyachi o‘zi milliy qadriyatlarga hurmat ko‘rsatmasa, odob-axloqqa amal qilmasa, boladan buni talab qilish samara bermaydi. Xuddi shuningdek, tarbiyachi bolalarning fikrini tinglamasa, ularni erkin gapirishga qo‘ymasa, turli qarashlarni qabul qilmasa, global kompetensiyalarni shakllantira olmaydi. Demak, pedagog bir vaqtning o‘zida milliy tarbiya targ‘ibotchisi ham, zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi fasilitator ham bo‘lishi kerak.

Ota-onalar bilan hamkorlik integratsiyaning mustahkam tayanchi sanaladi. Milliy qadriyatlar ko‘pincha oilada, mahallada, kundalik turmush odatlarida shakllanadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti esa bu tarbiyani tizimlashtiradi va pedagogik jihatdan boyitadi. Agar oila va bog‘cha qarashlari mos bo‘lsa, bola qadriyatlarni tezroq qabul qiladi. Shu bilan birga, global kompetensiyalar ham faqat bog‘chadagi mashg‘ulot bilan cheklanib qolmasligi, uy sharoitida ham davom ettirilishi muhim. Masalan, ota-onaga bolaga savol berish imkonini yaratish, fikrini eshitish, birgalikda kitob o‘qish, odobli muloqot qilish, konfliktlarni baqirmasdan hal qilish kabi tavsiyalar berilishi integratsiyani kuchaytiradi.

Integratsiya jarayonida muammolar ham uchrashi mumkin. Ba’zan milliy qadriyatlar noto‘g‘ri talqin qilinib, “faqat buyruq”, “faqat itoat” ko‘rinishida berilib qolishi ehtimoli bor. Bu esa bolada erkin fikrlashni cheklab qo‘yishi mumkin. Yoki aksincha, “global” tushunchasi ortidan milliy qadriyatlar chetga surilib, mazmunsiz universal mavzular ko‘payib ketishi ham mumkin. Shuning uchun integratsiya muvozanatli bo‘lishi kerak: milliy qadriyatlar bolaning ichki tayanchi, global kompetensiyalar esa uning dunyo bilan muloqot vositasi sifatida qaraladi.

Shu jihatdan, maktabgacha ta’limda milliy qadriyatlar va global kompetensiyalar integratsiyasi ta’lim mazmunini boyitadi, bolalarning ijtimoiy-emotsional, axloqiy va intellektual rivojlanishini kompleks tarzda qo‘llab-quvvatlaydi. Integratsiya orqali bola o‘zligini anglagan, o‘z madaniyatiga tayanadigan, shu bilan birga, boshqalarni hurmat qiladigan, muloqotga ochiq va hamkorlikka tayyor shaxs sifatida shakllanishi uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’limda milliy qadriyatlar va global kompetensiyalar integratsiyasi bolani har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu integratsiya orqali bolalarda milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosga hurmat, axloqiy me’yorlarga rioya qilish bilan bir qatorda, zamonaviy jamiyat talablariga mos ijtimoiy, kommunikativ va kognitiv ko‘nikmalar shakllanadi. Maktabgacha yosh davrida berilgan bunday tarbiya bolaning keyingi ta’lim bosqichlari va hayotiy faoliyatida mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Milliy qadriyatlar asosida olib borilgan tarbiya bolalarda vatanparvarlik, mehroqibat, mehnatsevarlik, jamoaviylik va insonparvarlik kabi sifatlarni rivojlantirsa, global kompetensiyalar ularni ochiq fikrlovchi, muloqotga tayyor, turli madaniyatlarni tushunadigan va hurmat qiladigan shaxs sifatida shakllantiradi. Ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘unlashuvi ta’lim jarayonining mazmunini boyitadi va tarbiyaviy ta’sirini kuchaytiradi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida integratsiyani samarali tashkil etish pedagoglardan yuqori kasbiy mahorat, ijodkorlik va moslashuvchan yondashuvni talab etadi. Milliy an’analar, xalq og‘zaki ijodi, o‘yinlar va urf-odatlar zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilganda, bolalarda bilim va ko‘nikmalar tabiiy va barqaror shakllanadi. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish integratsiya jarayonining uzviyligini ta’minlaydi.

Umuman olganda, maktabgacha ta’limda milliy qadriyatlar va global kompetensiyalar integratsiyasi nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki kelajakda jamiyat

taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida Qonun. Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. Toshkent, 2017–2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Maktabgacha ta’lim davlat ta’lim standarti. Toshkent, 2022.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 2019.
6. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. Paris, 2015.
7. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris, 2017.
8. OECD. Global Competence for an Inclusive World. Paris, 2016.
9. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, 1978.
10. Назарова Н.М. Педагогика дошкольного образования. Москва, 2018.
11. Шалва Амонашвили. Педагогика сотрудничества. Москва, 2016.
12. Sahlberg P. Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland. New York, 2015.